

XVII ASR O'ZBEK ADABIYOTI VA INGLIZ ADABIYOTI NAMOYONDALARI IJODIDAGI ASOSOIY MAVZULAR

Xolmatova Nargizaxon Ibragimovna

Farg'ona Politexnika instituti akademik litseyi

Ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Xudoyberdiyeva Muhayyoxon Voxidjon qizi

Farg'ona Politexnika instituti akademik litseyi

Ingliz tili o'qituvchisi

Tursunov Odiljon Azimovich

Farg'ona Politexnika instituti akademik litseyi

Tarix fani o'qituvchisi

Oxunjonov Muhriddin Xayitboy o'g'li

Farg'ona Politexnika instituti akademik litseyi

Ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va ingliz adabiyoti vakillarining 17-asrdagi ijodi va ulardagi ustuvor mavzular yoritib berilgan

Annotation: In this article the main topics of the creative works of Uzbek and the English writers and poets of 17 th century has been written

Kalit so'zlar: Turdi Farog'iy, Sharif Roqim Samarqandiy, «Muxammasi turki», «Muzakkir ul-asxob», «Tarixi kasira», Boborahim Mullo Vali o'g'li Mashrabdir, «Qissai Mashrab», «Tazkirai qalandaron», ma'rifatchilik davri, Daniel Defo, “Robinzon Kruzo” Jonatan Swift “Gulliverning sayohatlari”

Key words: Turdi Farogiy, Sharif Roqim Samarqandiy, «Muxammasi turki», «Muzakkir ul-asxob», «Tarixi kasira», Boborahim Mullo Vali o'g'li Mashrabdir, «Qissai Mashrab», «Tazkirai qalandaron», the age of enlightenment, Daniel Defo, “Robinzon Kruzo” Jhonatan Swift “Travels of Gulliver”

XVII—XVIII asrlarda Turkiston xalqlari madaniyati, san'ati, ma'naviy hayoti asosan uch mustaqil xonlik hududida rivojlandi. Bu xonliklarda ko'plab iste'dodli tarixchilar, tazkiranavishlar, xattotlar, musiqashunoslar, musiqa ustalari, shoir va adiblar yashab, barkamol asarlar yaratdilar.

Turdi Farog'iy XVII asr o'zbek adabiyotida hajviy-tanqidiy yo'naliishning kuchayishida, xalqona uslubning ildiz otib borishida katta ta'siri ko'rsata olgan iste'dodli shoirdir. Uning hayoti va ijodi ashtarxoniyalar sulolasidan Nodir devonbegi, Abdulazizzon hamda Subhonqulixon hukmronlik qilgan davrlarga to'g'ri keladi.

Aytish joizki, Turdining nomi ham, hozir bizga ma'lum bo'lgan she'rlari ham 1925- yili kashf qilindi. O'sha yillari kattaqo'rg'onlik hajvchi shoir va adib Abdulhamid

Majidiy Kattaqo'rg'onda o'tgan shoir-adiblar adabiy merosini aniqlash va o'rganish jarayonida qo'lyozma asarlar orasidan Turdi, Farog'iy taxalluslari bilan bitilgan 12 g'azal, 5 muxammas, 1 fardni aniqlaydi. U o'sha yillari Samarqandda chiqib turgan «Maorif va o'qitg'uvchi» jumalining 1925-yil 9-10-sonlarida «O'zbek shoiri Turdi» maqolasini hamda o'zi topgan she'rularini e'lon qiladi. Bu topildiq ko'pgina adabiyotshunoslar e'tiborini tortdi. Jumladan, S.Ayniy va Abdurauf Fitrat Turdi she'rлari haqida fikr yuritganlar, Majidiy ma'lumotlarini to'ldiruvchi, chuqurlashtiruvchi fikrlar bayon etganlar. O'sha she'rлar keyinchalik, 1960 yili professor H.Yoqubov, 1971-yili professor A.Hayitmetov tom onidan kirish so'zlari bilan nashr qilindi. Shoirning boshqa asarlari hozircha topilgan emas. Biroq gap Turdi Farog'iy yoki shunga o'xshash iste'dodli shoirlar asarlarining sonida emas, balki salmog'idadir. Aytish mumkinki, Turdi Farog'iy o'zining sanoqli g'azal va muxammaslari bilanoq o'zbek mumtoz she'riyatida yangi bir g'oyaviy-badiiy yo'nalishni yuz aga keltirdi. U hayotiy voqeа- hodisalami, real tarixiy shaxslar timsollarini she'rлariga mavzu qilib oldi.

Turdi Farog'iyning bizga ma'lum she'rлari uning murakkab hayat yo'li va mashaqqatli ijod bosqichlarini boshidan kechirganligidan dalolat beradi. Uning, ayniqsa, «Muxammasi turki» asarida shu holatlami aniqlab olishga imkon beruvchi avtobiografik lavhalar uchraydi.

Sharif Roqim Samarqandiy XVII asming II yarmi — XVIII asrning I choragida yashagan tarixchi olim va shoir, avlodi Andijon viloyatidan bo'lган. Malehoi Samarqandiyning «Muzakkir ul-asxob» tazkirasi ma'lum otlariga ko'ra, Roqimiyl Subhonqulixon hukmronligi yillarida bir necha muddat Buxoroning katta a'lami lavozimida ham bo'lган. 1701—1702 yillari Mulla Sharafiddin A'lam bin Nasriddin Oxund Mulla Farhod Samarqandiy tomonidan yaratilgan (1680) asarning qisqartirilgan nusxasini maydonga keltirgan. Bu asar ilmiy Adabiyotlarda «Tarixi kasira» nomi bilan zikr etiladi. Uning qo'lyozma nusxalari bir qancha chet mamlakatlar kitob fondlarida ham mavjud. 30ga yaqin nusxasi O'zRFA Sharqshunoslik Instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Asarda O'rta Osiyo, Xuroson, Shimoliy Afg'oniston va qisman Hindistonda XIV asrdan XVII asrgacha bo'lган turli voqeа-hodisalar bayon etiladi. Unda Amir Temurning tug'ilishidan boshlab ashtarxoniylardan Abdulazizzonning hokimiyatga kelgan yillarigacha (1645-1646) bo'lган voqealar solnomasi keltiriladi: shu davrlar ichida mashhur bo'lган tarixiy shaxslar — hukmdorlar (Temur, Shohrux, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Bobur Mirzo, Abdullaxon, Humoyun), olimlar va shoirlar (jumladan, Hofiz Sheroy, Kamol Xo'jandi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Binoiy, Mushfiqiy...) to'g'risida ma'lumotlar bor.

XVII asming ikkinchi yarmi — XVIII asr boshlarida yashab, ijod etgan atoqli namoyandalaridan biri Boborahim Mullo Vali o'g'li Mashrabdir. Mashrabning hayoti

va ijodiy faoliyati asosan O'rta Osiyo shahar-qishloqlarida kechgan, u ishqiy, tasavvufiy, isyonkorona she'rlari bilan shuhrat qozongan, xalq qalbidan chuqur joy olib, o'zi to'g'rida hikoyat, rivoyat, naql va afsonalaming paydo bo'lishiga ham sabab bo'lgan. Mashrab haqidagi eng muhim adabiy-biografik manbalardan biri, shubhasiz, «Qissai Mashrab» («Qissai Shoh mashrab») asaridir. Asar «Tazkirai qalandaron»da zikr qilingan Mashrabning darbadar hayotidagi doimiy hamrohi, muxlisi, qalandar shoir va qissanavis Pirmat Setoriy tomonidan kitobat qilingan, degan taxminlar aytildi. Bu kitobda Mashrabning joriy nashrlardagi she'rlaridan tashqari, uning shaxsiyati, avliyosifat xatti-harakatlari, karomatlari, shakkokona qiliqlari haqida qiziq-qiziq hikoyalar, rivoyatlar, naqlar, latifalar ham keltiriladi. U Mashrab adabiy merosini, she'rlarini o'z ichiga olgan asosiy adabiy manbadir. Bu qissa 1995 yili yosh adabiyotshunos Erkin Musurmonov tomonidan «Rahimbobo Mashrab va uning badiiy adabiyotdagi talqini» mavzuida yoqlangan nomzodlik dissertasiyasida tahlil etilgan. Mashrabning qo'nim siz, qalandarona hayoti va sarguzashtlari, imoni pokligi, sidqidildan Olloh vasliga erishishga intilishi, mutafakkir siymo sifatida shakllana boiganligi oddiy xalq dilini rom qilgan.

Maleho Samarcandiyning «Muzakkir ul-ashob» tazkirasida shoirning nomi, tavallud joyi, shaxsiy va adabiy qiyofasi eslatib o'tiladi. Yana bir manba Ziyovuddin Bog'istoniyning «Tazkirai qalandaron» asaridir. Unda Mashrab rahnamoligidagi darvesh-qalandar shoirlar haqida fikr yuritiladi. Bu tazkira XX asming 80- yillari ma'lum bo'ldi. XVIII—XIX asrlar davomida maydonga kelgan ba'zi tarixiy asarlarda ham Mashrab to'g'risida ayrim lavhalami, tarqoq ma'lumotlami uchratamiz.

Mashrab ijodi, ayniqsa, Mansur Halloj, Imomiddin Nasimi, Jaloliddin Rumi, Hofiz Sheroyi asarlari bilan g'oyaviy-fikriy hamohanglik kasb etadi: hurufiylik, panteistik qarashlar ifodasida Mashrab bu daho san'atkorlar, so'fiy shoirlar ijodidan kuchli ta'sirilangan. Mashrabning g'azallari va muxammaslari ichida ular she'rlariga yozilgan go'zal javobiyalar bor. Bunday she'rlami tahlil etsak, Mashrabning ham, garchand ular ishlatgan vazn, qofiya va radiflami qayta qo'llagan, asl holida saqlagan bo'lmsada, she'rlari mazmuniga o'zgacha ruh singdirilganligming shohidi bo'lamic. Buning bir dalili sifatida Nasimiyning quyidagi isyonkor baytlari bilan shu baytlar ta'siriida Mashrabning sehrli nafasidan paydo bo'lgan baytlami solishtirganimizda ochiq namoyon bo'ladi.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi diniy-tasavvufiy qarashlami falsafiy badiiy-tashviqiy yo'sinda davom ettirib, bir qancha salmoqli masnaviy asadar yaratgan ilohiyotchi mutafakkir shoirlardan biri So'fi Olloyordir. Uning o'ziga xos boy merosini chang g'uborlardan tozalab, xolis o'rganish va baholashga mustaqillik yillarida kirishildi. Hozirgacha bir qancha muhim ilmiy-tadqiqotlar yuz aga keldi. «Sabot ul-ojizin» asari ikki marta chop etildi.

Uning adabiy merosi va o'zbek adabiyotidagi an'analari bo'yicha iste'dodli adabiyotshunos olim va mudarris I. Suvonqulov 1997-yili doktorlik dissertasiyasi yoqladi, o'nlab ilmiy maqolalar, risolalar nashr ettirdi. Professor Sh. Sirojiddinovning 2001 yili nashr qilingan «So'fi Olloyor ilohiyoti» asari ham bu mutafakkir shaxsning «Sabot ul-ojizin» asaridagi zohiriylar hamda botiniy mazmunni, bu asaming diniy-islomiy asarlar turkumida tutgan o'ziga xos o'm ini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

«Sabot ul-ojizin» asari. So'fi Olloyoming masnaviy ilohiynoma asarlari ichida awal forsiy tilda yaratilgan, keyin o'zi tomonidan turkiy tilda ham nazm silkiga tushgan «Sabot ul-ojizin» masnaviysi alohida ahamiyatga egadir. Bu asarida mutafakkir shoir Qur'oni karim oyatlarini, Hadisi sharif hikmatlarini, musulmon ummati uchun farz va sunnat bo'lgan axloq normalarini masnaviy shaklida ifodalagan. Shu tariqa, sabotga muhtoj ojizlarga to'g'ri yo'lni-najot yo'lini ko'rsatib bergen. Asarda insofuadolat, tenglik ulug'lanadi, zulm va shafqatsizlik, xudbinlik, nopolik, nafs-havoga berilish shariat nomidan qoralanadi, mehr va muruwat, pokko'ngillilik, himmat va saxovat, xilvat va uzlat gashti, shirin tillilik, kamtarlik fazilatlari madh etiladi. Ulaming ta'rif va tavsiflari uchun diniy muqaddas kitoblardan qanchadan-qancha hikoyalar, rivoyatlar, naqllar, ma'vizalar keltiriladi. Pirning shogirdlarga ma'vizalari, talab va nasihatlari, pir va shogird m unosabatlari asar kom pozision qurilishini tashkil qiladi.

XVII asrda Angliya adabiyotida ma'rifatchilikning ilk davri bo'lgan. Bu davr jurnalistika rivoji, yangi dramatik janrlarning paydo bo'lishi bilan harakterlanadi.

Angliya ma'rifatchiligining atoqli namoyandalaridan biri Daniel Defo (1660-1731). Savdogar oilasida tug'ildi. Otasi uni Puritan diniy akademiyasiga o'qishga berdi. Ammo Defo savdo ishiga qiziqib umrining oxirigacha yirik tijoratchi bo'lib qoldi. U jumalist ham bo'lgan, satirik pamfletlar, romanlar, traktatlar yozgan. Ko'p sonli maqola va pamfletlarida feodal-aristokratlar bilan cherkov reaksiyasini fosh qiladi.

«Robinzo Kruzo» romani (1719). Defo davri kitobxonlari adabiyotga, xususan, nasrga shunday talablar qo'yadilar: hikoya ajabtovur narsalar haqida borishi, boshqalardan ajralib turishi va shu bilan bir qatorda to'qima bo'lmasligi kerak. Defo o'z asarida ana shu 2 talabni bajaradi. Uning romanini hozirda hujjatli nasr namunasi sifatida qabul qilish mumkin bo'lar edi. Romanni hujjatliligini Robinzonning proobrazi real odam shotlandiyalik matros Selkirk ekanligi ham tasdiqlaydi. U kimsasiz orolda 4 yil-u 4 oy yashaydi. Romanning birinchi qismidan so'ng ikkinchi va uchinchi qismlarini yozadi. Ammo asarning birinchi qismi katta shuhrat qozonadi. Romanning asosiy qismi yolg'iz insonning kimsasiz orolda yovuz tabiat kuchlari bilan yuzma-yuz olishuviga bag'ishlangan.

D. Defo adabiyotda birinchilardan bo'lib yaratuvchanlik mehnati mavzusini ko'tardi. Mehnat Robinzonni odam bo'lib qolishiga yordam berdi. Voqealarning

sodda, qiziqarli tilda hikoya qilinishi asarning o‘qimishli bo‘lishini ta’minlagan. “Robinzon Kruzo” romani keyingi davr adabiyotiga katta ta’sir o’tkazdi.

Jonatan Swift (1667—1745). Irlandiya poytaxti Dublinda ruhoniy oilasida tug‘ilgan. Yirik ingliz amaldori Vilyam Tempi saroyida kotib bo‘lib ishlagan. Vilyam boy kutubxonasidan foydalangan. Jurnalist sifatida tanilib «Kitoblar janggi», «Bochka haqida ertak» (1704) va boshqa hajviy asarlari bosilib chiqqan.

«Kitoblar janggi» pamfletida XVII asr oxirida Fransiyada 2 xil lager, ya’ni eski antik adabiyoti tarafdrorlari va yangi, zamonaviy adabiyot tarafdrorlari o‘rtasidagi katta tortishuvlar haqida satirik uslubda hikoya qilinadi. Birinchi lagerdan Bualo (“Poeziya san’ati”) o‘rin egallagan bo‘Isa, ikkinchi tomonda aka-uka Perrolar (3 aka-uka) joy olgan. Asosiy vazifa “Qizil qalpoqcha”, “Zolushka”, “Uyqudagi go‘zal” ertaklari muallifi, badiiy ertak asoschisi Shari Perroga yuklatilgan. Tempi hali qadimiy adabiyot tarafdrori edi. Kutubxonada yangi avtorlar kitobiga polkadan yaxshi joylar, qadimiy mualliflar kitobiga esa qorong‘i burchakdan joy ajratilgan edi. Xafa bo‘lgan qadimiy mualliflar qo‘zg‘olon qiladi. Otliqlami Homer va Pindar, qurollilami Aristotel hamda Platon va boshqalar boshqarib, g‘alaba qozonadi.

Swift —siyosiy yozuvchi. Uni, asosan, ijtimoiy masalalar qiziqtiradi. Yozuvchi o‘z asarlarida dunyo sirlari, go‘zallik, chuqur psixologizmga emas, jamiyat nuqsonlariga e’tiborini qaratadi. 1726-yilda yaratilgan “Gulliveming sayyohatlari” romani qahramoni - afsonaviy mamlakatlardan Liliputiyaga, ulkan odamlar mamalakatiga, Brobdingnegga, aqlii otlar mamlakatiga (Guinginiyaga) va boshqa yerlarga sayohat qilgan shaxs. Sayohatchining maqsadi insonlami ma’rifatli qilish (yaxshi va yomon misollar orqali) edi. Shuning uchun Swift fantaziysi ostida falsafiy tagma’no yotadi. Roman 4 qismdan iborat. 1-qism Liliputlar mamlakati haqida. Ular oddiy odamlardan 12 baravar kichik. (Bu Angliya). Amaldorlari ham xalq manfaatidan ko‘ra o‘z foydasini ko‘proq o‘yaydi. Angliya kabi bu yerda 2 partiya bor: baland poshnalilar va vichilar partiyasi.

Defoning romani yaratilishida ikki turdag‘i badiiy janr (Defo singari): sayohat va utopiya janri namuna rolini o‘ynagan. (Tomas Mor ”Utopiya”, Komponella “Quyosh shahri”) Swift ironik tarzda hikoya qilish ustasi. Agar u “olijanob”, “har narsaga qodir” deb tasvirlasa, demak, buning aksi bo‘lib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda XVII asrda o‘zbek adabiyoti namunalarida hajv, tarixni o‘rganish, Islom dini masalalari haqida yozilgan bo‘lsa, ingliz adabiyotida ko‘proq ijtimoiy masalalar, hurfikrlilik, mehnatdan keluvchi yaratuvchanlik masalalari haqida asarlar yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev V. “O’zbek adabiyoti tarixi” darslik. 2-kitob Toshkent 1980
2. Zohidov V “O’zbek adabiyoti tarixi” Toshkent 1961

3. “O’zbek adabiyoti tarixi” 4-5 jildlar Toshkent 1978
4. Majidiy R “Ogahiy lirikasi” Toshkent 1963
5. Komilov N “Bu qadim san’at” Toshkent 1988.
6. Альбер Камю. Творчество и свобода. Статьи, эссе, записные книжки. Москва, «Радуга», 1990.
7. Зарубежная литература. S.V. То ‘rayev muharrirligida. M., 1884
8. Klod David. Frans Kafka. Pleyado. Parij, 1976-1989.
9. Краткая литературная энциклопедия в 9 томах М., 1971.